

TUYCHIYEVA Nilufar

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO kafedrası o'qituvchisi, PhD
fiddin@mail.ru*

TASHBEKOVA Madinabonu

*Islomshunoslik yo'nalishi
4-kurs talabasi
mtashbekova021200@mail.ru*

MUTASAVVIFLARNING VALOYAT VA KAROMAT XUSUSIDAGI QARASHLARI

ВЗГЛЯДЫ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СУФИЗМА НА ВАЛЯ И КАРАМА

THE VIEWS OF THE REPRESENTATIVES OF SUFISM ON WALAYA AND KARAMA

Annotasiya: Maqola muallifi tasavvufdagi valiylik tushunchasi va uning etimologiyasi haqida ma'lumotlar bergan. Valiylik bilan bog'liq karomat masalasi hamda aqidada mazkur masalaning yoritilishi haqidagi olimlarning fikrini tahlil qilgan. Tasavvuf allomalarining karomat masalasiga munosabatini va ularning manbalarida valiylikning ahamiyatini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Mutasavviflarning valiylikning shartlari haqidagi turli qarashlarini muhokama qilgan.

Kalit so'zlar: valiy, karomat, sufiy, taqvo, mo'jiza, istidroj, nubuvvat.

Аннотация: Автор статьи привел сведения о понятии ваяя в суфизме и его этимологии. Он проанализировал мнение ученых по вопросу карама, связанное с ваяя, и освещению этого вопроса в исламской теологии. Он пытался показать отношение суфиев к вопросу карама и значение ваяя в их источниках. Обсуждались различные взгляды суфиев на условия ваяя.

Ключевые слова: вали, карама, суфи, богобоязненность, чудо, истидраж, пророчество.

Annotation: The author of the article gave information about the concept of walaya in Sufism and its etymology. He analyzed the opinion of scholars on the issue of karama associated with walaya and the coverage of this issue in Islamic theology. He tried to show the attitude of the Sufis to the issue of karama and the meaning of walaya in their sources. The different

views of the Sufis on the conditions of walaya were discussed.

Key words: wali, karama, sufi, piety, miracle, istidraj, prophecy.

KIRISH

Tasavvufda muhim tushunchalardan biri bu valiylik atamasidir. "Valiy" so'zi arab tilidagi "valiya" fe'lidan yasalgan bo'lib, "do'st", "yaqin" kabi ma'nolarni anglatadi. Uning ko'plik shakli esa "avliyo" dir.

Ba'zi kitoblarda "Vali – bahor yomg'iridan so'ng yog'gan yomg'ir, sevikli, do'st, yordam beruvchi [1:2528-2529]", "yaqin, himoya qiladigan, birovning ishini o'z zimmasiga oladigan, molik, mutasarrif [2: 1528]" kabi ma'nolarda keladi.

Tasavvufda esa valiy – Allohning e'tibori, himoyasi, yordami va sevgisiga sazovor bo'lgan va Allohga qurbat hosil qilgan inson.

Valiyning ikki ma'nosi bordir: Valiy "foil" vaznida mubolag'ali ismi foil ma'nosida qabul qilinsa, "Allohga bo'lgan qulligida deyarli kamchilik va nuqsonlarga yo'l qo'ymaydigan kishi", agar valiy foil vaznining maf'ul ekanligi e'tiborga olinsa, "uning himoya va muhofazasini Alloh zimmasiga olgan kishi" ma'nosini anglatadi [3: 536-537].

Valiy – mumkin bo'lgan o'lchovda Alloh va uning sifatlarini bilgan, toatlarda bardavom bo'lgan, ma'siyatlardan qochgan, shahvat va lazzatlardan yuz o'g'irgan kishi [4: 1528].

Valoyat so'zi Qur'onda 2 marta, valiy so'zi 24 marta, avliyo so'zi esa 62 marta, jami 86 joyda kelgan [5:18].

"Valiy" so'zi Qur'onda ikki xil ma'noda keladi:

1. Alloh uni doimo kuzatib turadigan, nazorat qiladigan, O'z himoyasida saqlaydigan, bir on bo'lsa-da o'z holiga tashlab qo'ymaydigan kishi.

"Albatta, mening valiyim kitobni nozil qilgan Allohdir. U solihlarni valiy (do'st) tutar [6:107]."

2. Toat-ibodatlar natijasida Allohga yaqin bo'lgan kishi.

Bunga Qur'oni Karimdagi quyidagi oyatlarni misol qilib keltirish mumkin: "Alloh esa taqvodorlarning do'stidir [6:342]."

"Ogoh bo'lingizki, Allohning valiylariga xavf yo'qdir va ular g'amgin ham bo'lmaslar [6:132]."

"Alloh imon keltirganlarning do'stidir. Ularni zulmatdan nur sari chiqaradi [6:30]."

Bundan tashqari, Alloh taolo Qur'oni Karimda O'zining ma'lum bir bandalarga valiy ekanligini, ba'zi bir bandalar U zotning avliyolari ekanligini aytib o'tgan [6:296].

Alloh taolo A'rof surasida Rasululloh (s.a.v)ga murojat qilib, but va sanamlarga ibodat qilayotgan va hidoyatga ergashmagan mushriklarga shunday deb xitob qilishni buyuradi:

“Albatta, mening valiyim Kitobni nozil qilgan Allohdir. U solihlarni do'st (valiy) tutar [6:107]”.

Shuningdek, Rasululloh (s.a.v): “Alloh bandalari orasida shunday kishilar borki, ular na payg'ambar va na shahid, ammo qiyomat kunida uning maqom-u darajalarini ko'rgan payg'ambarlar va shahidlar ularga havas qiladilar [8:515-516]”. Bularning kimligini so'ragan sahobalarga Rasululloh (s.a.v) bunday javob berganlar: “Bular shunday kishilarki, oralarida qarindoshlik aloqasi bo'lmasa ham, bir-birlari bilan oldi-berdilari bo'lmasa ham, bir-birlarini Alloh uchun yaxshi ko'radilar. Ularning yuzlari munavvar va nurli minbar uzra o'tiradilar. Odamlar qo'rquvga tushganlarida ular qo'rqmaydilar, odamlar xavotirlanganlarida ular xavfsiramaydilar”.

Rasululloh (s.a.v) bu so'zlarni aytgach, quyidagi oyati karimani o'qiganliklari naql qilinadi: “Ogoh bo'lingizki, albatta, Allohning valiylariga xavf yo'qdir va ular g'amgin bo'lmaslar”.

Abu Hurayra (r.a) dan rivoyat qilingan hadis: “Rasululloh (s.a.v): “Alloh taolo bunday deydi”, - dedilar:

“Kimda kim menga do'st bandamga dushmanlik qilsa, men unga urush e'lon qilaman! Bandam mening uchun eng mahbub bo'lmish men unga farz qilgan narsachalik menga yaqin bo'lolmaydi, agar bandam nafl toat-ibodatlar bilan menga yaqin bo'lmoqqa davom etsa, men uni yaxshi ko'raman. Men agar biror bandamni yaxshi ko'rib qolsam, uning eshitmog'i uchun quloq, ko'rmog'i uchun ko'z, ishlamog'i uchun qo'l, yurmog'i uchun oyoq bo'laman, u mendan biror narsa tilasa, tilagini ravo qilaman, Mendan panoh tilasa, panoh beraman. Men hech qaysi ishda mo'min bandamni jonini olishda ikkilangandek ikkilanmayman, u o'limni yoqtirmaydi, men uning qiynalishini yoqtirmayman [9:449]”.

Qur'on va hadisda kelgan valiylar aslida kimlar, ular qanday sifatlarga ega bo'ladi, ular bu darajaga qanday ega bo'ladilar kabi savollarga olimlar, sufiylar javob qidirganlar.

ASOSIY QISM

Tasavvuf manbalarida valiy - Allohga imon keltirgan, uning buyruq-amrlarini so'zsiz bajarib, nahiylaridan qaytadigan, tili doimo zikrda yuradigan, bu dunyo matohlaridan zuhd qilgan, havo-yu nafsini o'ziga bo'ysundirgan, faqatgina oxirat qayg'usida yashaydigan solih inson. Uning kuchli taqvosi sababli Alloh taolo uni yaxshi ko'radigan, xavf-xatardan asraydigan, doimo O'z himoyasida saqlaydigan yaqin do'stiga aylanadi.

“Ular imon keltirganlar va taqvo qilganlardir [6:132]”.

Ushbu oyatda valiyning sifati namoyon bo'lgan. Avvalo, valiy bo'lish uchun imon keltirgan mo'min bo'lishligi zarur, so'ngra mana shu imonida sobit turgan holda Allohning amrlariga bo'ysunishi va taqvoda bo'lishi lozim bo'ladi.

“Ularga dunyo hayotida ham, oxiratda ham xushxabar bor. Allohning so'zlarini o'zgartirish yo'q. Ana o'sha buyuk yutuqdir [6:132]”.

Allohning valiylari taqvolari sababidan bu dunyoda tinch va himoyada yashaydilar va oxiratda ham qilgan solih amallari va Allohga bo'lgan vafosi sababli katta ne'matlarga erishadilar.

Ibn Hajar rahmatullohi alayh valiylar haqida shunday deganlar:

“Valiy Alloh taoloni biluvchi, Uning toatida bardavom bo'luvchi va U zotga ixlos ila ibodat qiluvchidir [7:296]”.

Islom ilmlarida valiy va valoyat masalasi tasavvufiy asarlardan ayri bir masala sifatida e'tibor qilinib, bu mavzuga doir alohida kitoblar yozilgan. Bu asarlarda valiyning turli ta'riflari berilgan.

Sufiylarga doir tabaqot kitoblarida va asarlarida valiy bilan bog'liq ta'riflarda ustun bo'lgan unsur – valiyning har turli orzusiga orqa o'g'irgan va har tarafdan Allohga tavajjuh etadigan bir kishi bo'lishi kerakligidir.

Ibrohim ibn Adham (v.166/782) bir odamdand: “Allohning do'sti bo'lgan bir valiy bo'lishni xohlaysanmi?” deb so'radi. U odam: “Ha” deyishi bilan Ibrohim ibn Adham: “Unday bo'lsa, dunyo va oxiratga aloqador hech bir narsaga rag'bat etma, o'zingni faqatgina Alloh taologa topshir, senga tavajjuh etishi va ne'matlariga g'arq qilishi uchun sen yuzingni unga tavajjuh et”, dedilar [10:428].

Ma'ruf al-Karhiy “Valiylarning alomatleri nimalar?” shaklidagi savolga “Uch xil: o'y-fikrlari Alloh uchundir, mashg'ulliklari U bilandir, qochish va iltijolari Ungadir” shaklida javob berganlar [7:367].

Buning ma'nosi shundayki, valiy qalbida ham Allohni zikr bilan hayol etadi, unga ibodat bilan mashg'ul bo'ladi, faqatgina Unga duo va iltijo qiladilar va Undagina yordam so'raydilar.

Yahyo ibn Muoz (v.258-871): "Bu uch hislat valiylarning sifatlaridandir: har ishda Allohga ishonish, Uning soyasida har narsadan istig'no etish va har narsada Unga qaytish" deganlar. Bu yerda istig'no – turli istaklardan behojat bo'lishdir.

Abu Ali Juzjoniyy esa: "Valiy – taqdirda foniy, Haq mushohadasida boqiy bo'lgan, ishlarning Alloh taolo tarafidan ko'rilishi va idora etilishi uchun doimiy suratta ustiga do'stlik va sevgi nurlari kelgan, o'zidan xabar bermaydigan va Allohdan boshqasi bilan birga bo'lishga toqat qila olmaydigan kishi" deganlar [10:429,333].

Sufiylar valoyatni tasavvuf yo'lining asosi deya qabul qilganlar. Bu mavzuga aloqador bo'lgan Hujviriyyning quyidagi gapi e'tiborlidir: "Ma'lum bo'lsinki, butun ma'rifat va tasavvufning asli va asosi valoyat va uning qabul qilinishiga asoslanadi. Zero barcha shayxlar valoyat hukmining isbot va qabul etilishi ustida ittifoq qilganlar. Faqat har biri farqli bir ifoda bilan bu masalani ochiq qilganlar".

Sufiylar bir valiyni valiy bo'lganligini bilishi joizmi yoki yo'qmi mavzusida ihtilof qilganlar [7:346]. Bir qismi: "Agar bilsa, oqibatidan, taqdiridan amin bo'lishi va bu sababdan kibrga berilishi mumkin, shuning uchun bilishligi joiz emas" deganlar. Bir qismi esa: "Taqdiridan amin bo'lish Allohga yana-da ko'proq ta'zim qilishiga va Alloh haqqini himoya qilishiga undaydi. Chunki valiylik Allohning lutfi va ehsonidir. Yana ham ko'proq shukr etishi kerakligini bilsin deya bu turli ehson va ikromlarni bilishi mo'tadil holatdir, kerakdir. Ash'araiy mubashsharaning taqdirilarini bilishliklari ularning holatlarini o'zgartirmagan edi [8:26,193]. Bunda bilvosita valiyni valiylikni bilishining joiz bo'lishini bildiradi [11:427,534-535,82,331].

Karomat. "Karomat" so'zi arab tilidagi "karuma" fe'lidani yasalgan masdar bo'lib, karimlik, ulug'lik, sharaf, siylash, ustunlik berish kabi bir necha ma'nolarni anglatadi. Karomat ikki xil bo'ladi:

1. Asliy (Jibilliy) - ulamolar bu tur karomatga Odam avlodini Alloh taolo boshqa maxluqotlardan ustun qilib qo'yganligini va bunga Isro surasi 70-oyatni misol qilib keltirishadi:

"Batahqiq, Biz Odamni aziz-u mukarram qilib qo'ydik va ularni quruqliguga dengizda

(ulovla) ko'tardik hamda ularni pok rizqlar bilan rizqlantirdik"

Ushbu karomat butun odamzotga tegishli bo'lib, mo'min ham, kofir ham bular orasidadir.

Alloh taolo inson zotini boshqa maxluqotlatidan ustun qildi. Bu ustunlik esa ularning ongli ekanligidir. Yer yuzida qanchadan – qancha ulkan, yirtqich hayvonlar, mayda bo'lishiga qaramay judayam xavfli zaharli hasharotlar mavjud bo'lsa-da, inson ongli mavjudot bo'lganligi sababli o'zidan ulkan va xavfli bo'lgan bu hayvonlarni o'z izmiga sola oladi, o'zini himoya qila boshqara oladi. Mana shular nuqtai nazaridan bu insonning boshqa yaratilgan mavjudotlardan ustunlik karomati hisoblanadi.

2. Kasbiy karomat - bu insonning vaqtlar mobaynida imon-e'tiqodi va taqvosi sababli Alloh taolo nazdida boshqa bandalaridan oldinda, peshqadam bo'lganlarigagina tegishli bo'lib, bunga quyidagi oyatni dalil qilishadi:

"Allohning huzurida eng mukarramlaringiz-eng taqvodoringizdir [6:354]".

Kasbiy karomat faqatgina taqvodor mo'mindagina mavjud bo'ladi va undan sodir bo'lgan noodatiy ishlar esa karomat deb ataladi. Bu ishlarni karomat deb atash majozidir. Chunki Alloh taolo mana shu ishlarni taqvodor mo'min bandasi tarafidan uning ikromi uchun sodir etadi. Ushbu ishlarning sodir bo'lishi esa Alloh taolo o'sha bandasini ikrom qilganida sodir bo'ladi.

Karomat zohir bo'lishidagi hikmat – karomat sodir bo'lgandan so'ng valiyni ishonchi yana-da ortishi, taqvosi yana ham kuchayishi, havo-yu nafsidan qutilishidir. Ba'zi hollarda esa karomat Alloh taolo o'sha taqvodor bandasining taqvosi qay darajada ekanligini sinash uchun ham karomat in'om etadi. Ikrom qilinganini bilgan valiy havo-yu nafsiga berilib, kibrga ketadimi yoki shukr qilib taqvoda va zuhdada bardavom bo'ladimi buni ko'rish uchundir.

Kasbiy karomatga Qur'on oyatlarida, hadislarda, sahobalarning hayotlarida ko'plab misollar mavjud. Ulardan ba'zilari quyidagilardir:

"Zakariyo har safar uning oldiga – mehrobgaga kirganda, uning huzurida rizq ko'rdi. U dedi: "Ey Maryam, senga bu qayerdan?" dedi. U: "Bu Allohning huzuridan. Albatta Alloh xohlagan kishisiga behisob rizq beradi [6:37]".

"Bas, unga homilador bo'ldi. So'ngra u bilan uzoq makonga chetlandi [6:197]".

Yuqoridagi oyatlar Maryamning Iso alayhissalomga odatdan tashqari holda homilador bo'lishlari u kishiga Alloh taolo bergan ikrom hisoblanadi. Bundan tashqari Kahf surasidagi g'or odamlari hikoyasi ham kasbiy karomatga misol bo'la oladi:

“Kahf va bitik egalarini Bizning ajoyib oyat-belgilarimizdan deb o'yladingmi?”

“So'ngra ikki guruhdan qaysi biri ularning turgan muddatini hisoblovchiroq ekanini bilish uchun ularni uyg'otdik [6:188]”.

Bunga qo'shimcha qilib, Xolid ibn Validga zahar ta'sir qilmaganligi, Umar ibn Xattobning uzoq masofadan “Sariya” degan chorlovchi eshitib, qo'shinni qutqarib qolganliklarini keltirish mumkin.

Bu kabi karomatlar payg'ambar bo'lmagan oddiy, lekin taqvoda sobit bo'lgan mo'minlar tarafidan sodir bo'lgan ishlardir. Bundan tashqari, valiy deb tanilgan kishilarning qisqa vaqt ichida uzoq masofani bosib o'tganligi, havoda uchish, suv ustida yurish, duolarining tez fursatda ijobat bo'lishi, o'z hollaridan xabardor etilishlari, tushda ayon bo'lish, ilhom kabi turlarini ko'rish mumkin.

Alisher Navoiy “Nasoyimul muhabbat” asarida shunday yozadi: “Avliyolarda zohir bo'ladigan g'ayri tabiiy odatlar va karomatlar bayoni va avliyolarning martabalari ko'p bo'lganidek bular ham ko'pdir. Chunonchi, bir nechtasini sanab o'tayin: mavjudlikdan yo'q bo'lish va yo'qlikdan mavjud bo'lish va yashirin amrning izhori va ko'rinib turgan amrning yashirinishi va duoning ijobat bo'lishi va ozgina vaqt ichida uzoq yo'lni bosish va sezgilar (ko'rish, eshitish kabi) sezmaydigan ishlardan xabar toppish va bir vaqtning o'zida bir necha xilma-xil joylarda hozir bo'lmoq va o'likni tiriltirish va tirikni o'ldirish va jismlar, o'simliklar, hayvonlar tilini anglash, ularning Xudoga tasbehini bilib turish va taom, ichimlikka hojat paydo bo'lganday bularning sababsiz paydo bo'lishi va suv ustida yurish va havoda uchishdek va odamlar yemaydigan narsalarni yeb kun o'tkazish va hayvonlar bilan do'stlashish va badanda haddan ziyod quvvat paydo bo'lib, daraxtni ildizi bilan qo'porish, devorni barmoq ishorati bilan teshish va muxolif boshini ilik ishorati bilan uchirmoq, g'arq bo'layotgan kemalarni qutqarmoq. Odam ahli tilaganidek ishlar, masalan, yomg'ir yog'dirish, shamol qo'zg'atish, sel keltirish yoki selni daf qilish va chigirtka ofatini daf qilish va turli suratda ko'rinish. Biyobonda

sarson bo'lganlarga rahnamolik qilish va yordam berish”

Umuman olganda, g'ayrioddiy ishlarning turlari ham mavjud. Ularni 3 qismga bo'lish mumkin.

1. Mo'jiza
2. Karomat
3. Sehr (istidroj)

Bu turdagi odatdan tashqari ishlar kim tomonidan sodir etilishiga qarab shunday turlarga bo'lingan. Lekin voqelikda ham ular orasida farqlar mavjud.

Mo'jiza payg'ambarlar tarafidan sodir bo'ladi va uning hikmati kofirlarni imonga chaqirishdir. Karomat yuqorida aytilganidek, taqvodor mo'min tarafidan sodir bo'ladi. Sehr esa taqvosi yo'q bo'lgan, Allohni tanimaydigan insonlar tarafidan sodir etiladi. Bularning bir-biridan farqi – mo'jiza va karomat Alloh tarafidan ixtiyor bilan tanlangan bandalariga beriladi. Sehrni esa taqvosiz insonlar o'z imonlarini sotish evaziga jin-shaytonlar bilan kelishgan holda kasb qiladilar. Bu esa kufrdir. Mo'jiza va karomatning voqelikdagi farqi quyidagicha:

Karomat odatda biror vositani ishga solsa, amalga oshishi mumkin bo'lgan, lekin bevosita sodir bo'lgan ishdir. Masalan, uchish uchun biror transport, suv ustida yurish uchun ham biror kema kerak bo'ladi. Ya'ni karomat ushbu transport vositalari bilan amalga ohsa bo'ladigan ishlarni mana shu vositalarsiz amalga oshishidir.

Mo'jiza amalga oshishi uchun hech qanday vosita shart bo'lmaydi. Misol uchun Iso alayhissalomning hech qanday vositasiz o'liklari tiriltirishligi, qushning haykalchasiga puflab, uni jonlashtirganligi:

“U: “Albatta, men sizga Robbingizdan oyat-mo'jiza keltirdim, men sizlarga loydan qushga o'xshash suvrat yasayman, unga puflasam, Allohning izni bilan qush bo'ladi. Alloh izni bilan tug'ma ko'r va peslarni tuzataman va o'likni tiriltiraman. Sizlarga nimani yemoqdasiz-u, nimani uyingizda saqlayapsiz- xabarini beraman. Agar mo'min bo'lsangiz, albatta, bunda sizga oyat-belgi bordir [6:38]”.

Muhammad sollallohu alayhi vasallamning barmoq ishorasi bilan Oyni ikkiga bo'lishlari:

“Soat(qiyomat) yaqinlashdi va Oy bo'lindi”

“Agar bir oyat-mo'jizani ko'rsalar, yuz o'girarlar, bu o'tkinchi sehr derlar” [6:367].

Va U zotning me'rojga chiqishlar:

“Darhaqiqat, u(o’sha soatda) Parvardigorining buyuk belgilaridan ko’rdi [6:364]”.

Shu kabi mo’jizalar hech qanday vosita yordamisiz sodir bo’lgan. Ba’zi hikoya va rivoyatlarda payg’ambar bo’lmagan insonlar tarafidan ham shunga o’xshash ishlar sodir bo’lganligi haqidagi gaplar asossiz va uydirmalardir.

Sehr va istidroj kabi g’ayrioddiy ishlarning aksari ko’zbo’yamachilik orqali sodir bo’ladi. Aslida sodir bo’layotgan ushbu noodatiy ish voqelikda aslan sodir bo’lmayotgan bo’lsa-da, insonlar ko’ziga haqiqatda sodir bo’layotgandek ko’rinadi. Bunday holatga uchraganda, Oyat al-kursiyni o’qish orqali sehrni to’xtatish mumkin bo’ladi.

Karomat haqida mo’min inson qanday aqidada bo’lishi zarurligi haqida aqidaviy manbalarda matnlar keltirilgan. Imom Nasafiy o’zlarining “Aqoid an-Nasafiy”da quyidagilarni keltirganlar:

“Avliyolarning karomatlari haqdir, Valiy – Allohni va Uning sifatlarini taniydigan, toatda bardavom bo’ladigan va ma’siyatlardan qochadigan, lazzat va shahvatlarga berilib ketishdan sabr qila oladigan kishi. Uning karomati u tomonidan odatdan tashqari bo’lgan g’ayrioddiy ishlarning zohir bo’lishidir-ki, uni nubuvvat da’vosi bilan solishtirib bo’lmaydi. Agar bu g’ayrioddiy ishlar imon va solih amal bilan bog’liq bo’lmasa, u istidroj bo’ladi, agar u nubuvvat (payg’ambarlik) da’vosiga bog’liq holda sodir bo’lsa, u mo’jizadir.

XULOSA

Ko’plab sahobiyalar va ulardan keyingilardan kelgan inkor qilish mumkin bo’lmaydigan mutavotir xabarlar karomatning haqiqat ekanligiga dalildir. Xususan karomatning zohir bo’lishi mushtarak, uning tafsilotlari esa ohoddir. Masalan, Qur’oni Karimda Maryamdan, Sulaymon alayhissalomning vaziri Asifdan zohir bo’lgan, joizligini isbotlashga hojat bo’lmagan voqea isboti haqida aytiladi.

So’ngra karomatning tafsiriga va uning umuman aqlga sig’maydigan ba’zi juz’iyyatlarining tafsiliga ishora qiladigan kalom vorid bo’ldi. Aytiladiki: Karomat – odatga to’g’ri kelmaydigan tarzda valiylarda sodir bo’ladigan ishlardir. Masalan, uzoq masofani qisqa muddatda bosib o’tish (xuddi Sulaymon alayhissalomning Asif ibn Burahyaning Bilqis taxtini ko’z yumib-ochgunga qadar keltirishi kabi), ehtiyoj bo’lgan vaqtda taom, ichimlik, libosning paydo bo’lishi(xuddi

Maryam onamizga berilgani kabi), suv ustida yurish (ko’plab avliyolardan naql qilingani kabi), osmonda uchish (xuddi Ja’far ibn Abu Tolibdan va Luqmon as-Saraxsiy rohimahulloh va boshqalardan naql qilingan voqealar kabi), tilsiz narsalar va hayvonlarning gapirishi (tilsiz narsalarning gapirishi ularning tasbih aytishidir va hayvonlarning gapirishi esa G’or egalari bilan gaplashganlari) kabi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Abu Ishoq ash-Sheroziy Firuzabadi. al-Qomusul muhit, – Jild. IV, – 583 b.
2. Ibn Mansur Muhammad ibn Mukarram. Lisanul-Arab. – Qohira. 1883. – Jild. III, – 1528 b.
3. Qarang. Qushayriy, o’sha yerda, p. 426, 536-537; Hujviri, Haqiqat bilimi, p. 327; Serrik, al-Luma, p. 47. Kiyiel Istilaharu’s-sufiyya, 78; Shog’iniy, Katru’l-veli, 236-237; A. Subhi Furat, “Vali”, (A, XIII, 287: M. Zeki Pakala. Tarix idiomalari va atamallari, III, 589. Krs. Afifi, et-So’fi sevtretun Ruhiyye fi-Islom, – B 281.
4. Tahonaviy Ashraf. Kashshofu istilohatil funun, III, 1528 b.
5. Usmonov I. va boshq. Tasavvufga kirish. – Toshkent: Yosh kuch, 2019.
6. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimai. A’rof surasi, 196-oyat/ Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2007.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. –Toshkent: Hilol-Nashr, 2019. – 296 b.
8. At-Termiziy, Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra. Al-Jome as-sahih va huva sunan at-Termiziy. – T. 4. Kitob az-zuhd. (2390). – Bayrut.: Dor al-kutub al-ilmiyya, nashr yili ko’rsatilmagan. – B. 515-516.
9. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: Al-jome as-sahih (Ishonarli to’plam): 2 kitob / (Riqoq) Latif so’zlar kitobi (6502). – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 449.
10. Imom Abul Qosim Qushayriy. Risolai Qushayri. – Qohira: - 428 b.
11. Sulamiy Abdurahmon. Tabaqotus sufiy. 90; Abu Nuaym, Hilya, VIII, – Misr: 1406. 367
12. Hujviri, Kashful mahjub, – Leningrad: 1926. 326.
13. Sulamiy Abdurahmon, Tabaqotus-sufiyya, s. 346.
14. Rivoyatlar uchun qarang: Termiziy, 50/Manoqib, 26 (V. 605-606, h. №: 3747-3748); Musnad, 1, 193.